BIZNES YURITISHDA IQTISODIY SALOHIYATDAN SAMARALI FOYDALANISH DARAJASINI BAHOLASH

Arslanbekov S.M. dotsent, t.f.n.,TDTU

Tayanch so’z va iboralar: Iqtisodiy subyekt, salohiyat, kichik biznes,iqtisodiy resurslar

Biznesni samarali tashkil etish va yuritishning muhim jihatlaridan biri - muayyan darajadagi iqtisodiy subyekt (mamlakat, mintaqa, hudud, korxona, tadbirkor)ning iqtisodiy salohiyatidan imkon qadar to’liq foydalanish hisoblanadi.

Umumiy holda “salohiyat” (potensial - lotinchada potentia - kuch, imkoniyat degan ma’noni anglatadi) - u yoki bu narsani yuritish, muayyan holatda ushlab turish yoki saqlash uchun zarur bo’lgan vositalar, sharoitlar majmui[1]. Bundan kelib chiqqan holda, iqtisodiy salohiyatni turli darajadagi xo’jalik faoliyatini yuritish uchun zarur hamda mavjud bo’lgan iqtisodiy resurslar majmui sifatida ifodalash mumkin.

Iqtisodiy salohiyatni tarkiban ikki qismga ajratish mumkin: 1) ayni paytda amalda foydalanilayotgan, ishga tushirilgan qismi; 2) qandaydir qo’shimcha xatti - harakat orqali ishga tushirilishi mumkin bo’lgan qismi (2.1. - rasm).



[1] Потенциал. Толковый словарь Ушакова. - https://dic.academic.ru/dic.nsf/ushakov/963642

2.1. - rasm. Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismlari.

Rasmdan ko’rinadiki, iqtisodiy salohiyat - bu qandaydir kuch yoki imkoniyatning umumiy chegarasini ifodalab, uning ma’lum qismi ayni paytda foydalanishda bo’lsa, boshqa bir ahamiyatli qismi hali foydalanilmagan zaxira sifatida maydonga chiqadi.

Shunga ko’ra, kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan to’laroq foydalanish, ayniqsa, aholi ixtiyoridagi bo’sh turgan iqtisodiy resurslarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish muhim hisoblanadi. Buning uchun mazkur jarayonni muntazam o’rganib va baholab borish taqozo etiladi.

Kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholash mazkur yo’nalishdagi tizimli chora - tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini taqozo etadi. Shunga ko’ra, hududdagi kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholash hamda uni yanada faollashtirishning asosiy yo’nalishlarini aniqlash tartibi tavsiya etiladi (2.1 - rasm).

2.1. - rasmdan ko’rinadiki, kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholashning tavsiya etilayotgan tartibi mamlakatning turli hududlarida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini baholash bo’yicha sotsiologik tadqiqot o’tkazish dasturini ishlab chiqishdan boshlanadi. Mazkur dasturda baholash uchun boshlang’ich (birlamchi) ma’lumotlarni yig’ishning maxsus usuli sifatida sotsiologik so’rovni amalga oshirish ko’zda tutiladi.

Sotsiologik so’rovni yalpi shaklda o’tkazish imkoniyatlari cheklanganini hisobga olib, so’rov o’tkaziladigan hududlar aniqlanadi. Keyingi bosqichdagi ish respondentlar soni va tarkibini aniqlash hisoblanadi. Chunki, ushbu jarayon

sotsiologik so’rovning maqsadiga bog’liq bo’lib, olinadigan natijaning samarasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Navbatdagi bosqichda mamlakatning tanlab olingan hududida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini baholash maqsadida bevosita sotsiologik tadqiqot o’tkaziladi. Buning uchun so’rov jarayonlarini to’g’ri tashkil etish va o’tkazish muhim hisoblanadi. Olingan ma’lumotlarni dastlabki qayta ishlash oldindan belgilab olingan maxsus ilmiy taxmin va farazlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu taxmin va farazlarning to’g’riligini tekshirish uchun olingan ma’lumotlar asosida model tuziladi.

Mamlakatimizda kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholashning yana bir muhim qismi - muayyan hududdagi kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning mavjud imkoniyatlarini o’rganish hisoblanadi. Buning uchun iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholash taqozo etiladi.

Mamlakatning turli hududlarida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha sotsiologik tadqiqot o‘tkazish dasturini ishlab chiqish
So‘rovnoma tuzish
So‘rov o‘tkaziladigan hududlarni aniqlash
Respondentlar soni va tarkibini aniqlash
Mamlakatning muayyan hududida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha sotsiologik tadqiqot o‘tkazish
So‘rov jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish
Ma’lumotlarni dastlabki qayta ishlash
Ma’lumotlar asosida model tuzish
Muayyan hududdagi kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning mavjud imkoniyatlarini o‘rganish
Mamlakat hududlaridagi iqtisodiy resurslardan foydalanish
Hududlarda iqtisodiy resurslardan foydalanish indeksi va reytingini aniqlash
Hududlardagi iqtisodiy resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlarni statistik ma’lumotlar asosida hisoblash
Ko‘rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash usullarini ishlab chiqish
Kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini hududning rivojlanishiga ta’sirini baholash
Xulosalar chiqarish
Ma’lumotlarni qayta ishlash
Ekonometrik model tuzish
Hududlarning taqqoslama tahlili asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash
Tadbirkorlik faoliyatiga bo‘sh iqtisodiy resurslarni jalb qilishning muayyan mexanizmlarini ishlab chiqish

2.2. - rasm. Hududdagi kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholash tartibi.

Mamlakatimizning ayrim hududlaridagi aholi ixtiyoridagi iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholashda quyidagi holatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) baholash bo’yicha hisob - kitob ishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan ma’lumotlarning rasmiy statistik manbalarda mavjudligi;

2) indeksni aniqlashda hudud iqtisodiy faolligiga ta’siri sezilarli bo’lgan hududlarni ro’yxatdan chiqarib turish. Masalan, Toshkent shahri va viloyatidagi hudud iqtisodiy faolligiga markazda joylashish omilining ta’siri sezilarli ekanini hisobga olib, indeksni aniqlashda mazkur hududlarni ro’yxatdan chiqarib turish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qo’llanishi mumkin bo’lgan aholi ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarni ajratib olish muhim. Fikrimizcha, bunday resurslar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) mehnat resurslari;

2) aholi ixtiyoridagi tomorqa yerlari;

3) turli sohalar bo’yicha malaka va ko’nikmalar va h.k.

Mehnat resurslarining bandlik holati hududdagi kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Bandlik darajasini umumiy mehnat resurslariga hamda iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan hisoblash mumkin.

Hududlardagi iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholash uchun ko’rsatkichlar tizimini aniqlab olish hamda ularni hisoblash usullarini ishlab chiqish lozim (2.1 - jadval).

2.1 - jadval.

Iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholash ko’rsatkichlarini hisoblash usullari

Ko’rsatkich	Hisoblash uslubi	Shartli belgilar
Hududdagi mehnat resurslarining bandlik darajasi	BDMR = (IB / MR)*100% BDIFA=(IB / IFA)*100%	BDMR - hududdagi umumiy mehnat resurslariga nisbatan mehnat resurslarining bandlik darajasi; BDIFA - hududdagi iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan mehnat resurslarining bandlik darajasi; IB - hudud iqtisodiyotida band bo’lgan mehnat resurslari soni; MR - hududdagi umumiy mehnat resurslari soni; IFA - hududdagi iqtisodiy faol aholi soni.

Hududdagi o’rtacha oylik ish haqi darajasi	Rasmiy statistik ma’lumotlardan olinadi	
Hududda yaratilayotgan tadbirkorlik daromadi darajasi	TDMR= (APD* UTD/100%)/ MR TDIB = (APD* UTD/100%)/ IB	TDMR - hududdagi umumiy mehnat resurslariga nisbatan yaratilayotgan tadbirkorlik daromadi darajasi; TDIB - hududdagi iqtisodiyotda band mehnat resurslari soniga nisbatan yaratilayotgan tadbirkorlik daromadi darajasi; APD - hududdagi aholining pul daromadlari hajmi; UTD - hududda yaratilayotgan tadbirkorlik daromadining aholi pul daromadlari tarkibidagi ulushi.
Hududda ko’rsatilayotgan	PXHMR= PXH/ MR	PXHMR - hududdagi umumiy mehnat resurslariga

pullik xizmatlar hajmi darajasi	PXHIB= PXH/ IB	nisbatan ko’rsatilayotgan pullik xizmatlar hajmi darajasi; PXHIB - hududdagi iqtisodiyotda band mehnat resurslari soniga nisbatan ko’rsatilayotgan pullik xizmatlar hajmi darajasi.
Hududda tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish darajasi	TCMR=(CHS+SU+SM+ MXK)/ MR TCIB=(CHS+SU+SM+ MXK)/ IB	TCMR - hududdagi umumiy mehnat resurslariga nisbatan tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish darajasi; - hududdagi iqtisodiyotda band mehnat resurslari soniga nisbatan tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish darajasi; CHS - tashkil etilgan chakana savdo shaxobchalari soni; SU - tashkil etilgan savdo va umumiy

		ovqatlanish korxonalari soni; SM - tashkil etilgan savdo maishiy majmualari soni; MXK - tashkil etilgan maishiy xizmat ko’rsatish shoxobchalari soni.

Mamlakatimiz bo’yicha iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasi to’g’risida umumiy tasavvur hosil qilish uchun hududlarda iqtisodiy resurslardan foydalanish indeksi va reytingini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bir ko’rsatkichni indeksga aylantirish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$IP_i = \frac{i-Pmini}{Pmaki-Pmini}$$

bu yerda:

IPi - i - ko’rsatkich indeksi;

i - muayyan hududdagi iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholashni ifodalovchi i - ko’rsatkichning haqiqiy qiymati;

Pmini - tahlil qilinayotgan hududlar orasidagi i - ko’rsatkichning eng kichik qiymati;

Pmaki - tahlil qilinayotgan hududlar orasidagi i - ko’rsatkichning eng katta qiymati.

Hududdagi iqtisodiy resurslardan foydalanishning umumiy qiymati (OI)ni hisoblash uchun barcha alohida ko’rsatkichlar indekslari yig’indisining o’rtacha geometrik qiymatini aniqlash taqozo etiladi:

$$OI = \sqrt[n]{IP_1 + IP_2 + \cdots + IP_n}$$

Navbatdagi bosqichda tanlab olingan hududlardagi Kichik biznesning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini hududning rivojlanishiga ta’sirini baholash hisoblanib, buning uchun ekonometrik modellardan foydalanish zarur. Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash orqali tegishli xulosalar chiqariladi. Ushbu xulosalar ayni paytda hududlarning taqqoslama tahlili asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo’nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini baholash tartibining so’nggi bosqichida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga bo’sh iqtisodiy resurslarni jalb qilishning muayyan mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilayotgan shart - sharoitlar, qabul qilinayotgan meyoriy - huquqiy hujjatlar ishbilarmonlik faoliyatiga davlat aralashuvini maksimal darajada kamaytirishga yo’naltirilmoqda. Bu albatta, O’zbekistonda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga, natijada esa tadbirkorlik faoliyatiga yo’naltiriladigan investitsiyalarga bo’lgan ishonchni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitda biznes va tadbirkorlikning tashkiliy shakllari kichik biznes avtomobil transporti korxonalari va mikrofirmalar, qishloq xo’jaligida esa fermer va dehqon xo’jaliklari hisoblanadi. 2018 yil 1 yanvar holatiga

respublikamizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni (dehqon va fermer xo’jaliklaridan tashqari) 229666 tani tashkil etdi.

Kichik biznes (KB) avtomobil transporti korxonalari eng arzon, oson boshqariluvchi bozor konyunkturasi o’zgarishlariga tez moslashuvchan subyektlar hisoblanadi. Ular yirik avtomobil transporti korxonalardan farqli o’laroq, atrof - muhitning yomonlashuviga kam ta’sir ko’rsatadi, jiddiy ekologik muammolarga olib kelmaydi. Kapital sig’imining kichikligi va moslashuvchanligi tufayli biznes va tadbirkorlik sohasi avtomobil transporti korxonalari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va chiqarilayotgan xizmat assortimentini yangilashda yirik avtomobil transporti korxonalarga nisbatan ko’proq muvaffaqiyatga erishadi va demak, bozor talabiga tezroq moslashib oladi.

Fan - texnika taraqqiyoti kuchayib, yuqori texnologiyalar, mehnat qurollari va asbob - uskunalar tez - tez o’zgarib turgan iqtisodiyot globallashuvi - hozirgi kunda biznes va tadbirkorlik avtomobil transporti korxonalari yaratilayotgan va faoliyat ko’rsatayotgan muhit aynan shundaydir. Boshqaruv xarajatlarining nisbatan kamligi, faoliyatning ko’p funktsionalligi iqtisodiy muvaffaqiyatga tez erishish imkoniyatlari KB va tadbirkorlik avtomobil transporti korxonalarini jamiyatning iqtisodiyot strukturasida ustivor bo’lishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Qosimov S.S., G.M.Shadieva., Isoqov M.Y. Biznes - rejalashtirish. Darslik. - T.: “Transport” nashriyoti, TDTU 2022, - 221 bet